

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MUXAMMADIYAROV AYDOS JOLDASBAY O‘G‘LI

**INGLIZ VA QORAQALPOQ SHE‘RIYATIDA “SOUL/RUWX”
KONSEPTINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Muxammadiyarov Aydos Joldasbay o‘g‘li

Ingliz va qoraqalpoq she‘riyatida “Soul/Ruwx” konseptining lingvomadaniy xususiyatlari..... 3

Мухаммадияров Айдоc Жолдасбай улы

Лингвокультурологические особенности концепта «Soul/Ruwx» в английской и каракалпакской поэзии..... 25

Muxammadiyarov Aydos Joldasbay uli

Linguocultural features of the concept «Soul/Ruwx» in English and Karakalpak poetry..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MUXAMMADIYAROV AYDOS JOLDASBAY O‘G‘LI

**INGLIZ VA QORAQALPOQ SHE‘RIYATIDA “SOUL/RUWX”
KONSEPTINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Fil5723 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.karsu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tajieva Aliya Utebaevna
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Abdinazimov Shamshetdin Najimovich
filologiya fanlari doktori, professor

Abidova Roxatoy Xudayberganovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "4" dekabr kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25); faks: (99861) 223-59-25, e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (402 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "13" noyabr kuni tarqatildi.
(2025 yil "13" noyabr dagi №26 raqamli reestr bayonnomasi)



M.S. Kudaybergenov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

J.E. Seytjanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi
filologiya fanlari nomzodi, professor

G.A. Kurbaniyazov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori
(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida universallik darajasiga ega umumiy tushunchalar olamning lisoniy manzarasida xalqlarning madaniy-tarixiy xususiyatlarini va milliy xalqchilik xususiyatlarini ifodalashda muhim element hisoblanadi va shu orqali etnoslarning anglash tabiati bilan bogʻlanadi. Jumladan, “Soul/Ruwx” konsepti turli tizimli tuzilishga ega boʻlgan ingliz va qoraqalpoq tillarida qiyoslash ancha dolzarb ish boʻlishi bilan birga, ancha murakkablikka ham ega, chunki, til birliklari, semantik olam, leksik maydon, iboralar, idiomalar, til birliklarining zamon va makon kengligi xilma-xilligi bilan tarixiy-geografik, joy va geneologik chuqurliklarga borib taqaladi, ammo olingan natijalar qiymati salmoqli va tillarning potensial rivojlanishida ahamiyatlidir. Ayniqsa, lirikadagi poetik til koʻproq ranglarni oʻz ichiga oladi va shoir sheʼriyati xalqning soʻzlashuv tilidan quvvatlanadi, shuning uchun ingliz va qoraqalpoq adabiyoti, xususan, sheʼriyatda “Soul/Ruwx” konseptini oʻrganish milliy mentallikni yangi koordinatlardagi lisoniy va poetik konfiguratsiyalar bilan oʻrganishga yoʻl ochadi.

Dunyo tilshunosligida bugungi kunda antropotsentrik yoʻnalishda inson fenomeni, uning tafakkuri, ruhiy olami, borliqqa munosabati, madaniyati va mental tabiatini oʻrganish tadqiqot yoʻlida asosiy eʼtibor markaziga aylanib ulgurdi. Shuningdek, bu tadqiqotlar bevosita lingvokognitiv, lingvomadaniy, lingvopragmatik, sotsiolingvistik, kognitiv-diskursiv jihatlariga asoslangan kognitivistika, lingvomadaniyatshunoslik, lingvopragmatika, sotsiolingvistika kabi keng tarmoqli sohalarga tayanib, har bir xalq oʻzining lisoniy ongi va milliy-madaniy xususiyatini qiyosiy-tipologik, kontrastiv yoʻllar bilan ochib berishga harakat qilmoqda.

Mamlakatimizda har bir soha, xususan, ilm-fan, iqtisodiyot, texnologiya, sanoat, industriya yangi-yangi oʻzgarishlar, yangilanishlar va rivojlanishlar bilan jadal surʼatda ilgari bormoqda. Shu bois, hayot koʻproq yangi qiyinchiliklar va yutuqlar bilan yuzma-yuz boʻlishni taqozo etishi aniq. Hech shubhasiz, har qanday soha rivoji uchun mehnat qilishda bizdan oldingi ajdodlar, mutafakkirlar, buyuk allomalar bosib oʻtgan yoʻl kelgusi avlodlarga ham ibrat, ham namuna hisoblanadi. Shuningdek, vatanga sadoqat, mehr-muhabbat kabi his-tuygʻularni singdirishga zamin yaratadi. Prezidentimiz taʼkidlaganidek: “biz koʻhna va boy tariximizni, ayniqsa, gʻoyat ogʻir sharoitda ilm-maʼrifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat gʻoyalarini dadil koʻtarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur oʻrganishimiz lozim. Ularning ulugʻ maqsadlar yoʻlidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi Oʻzbekistonni barpo etishda barchamiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi boʻlib xizmat qilishi zarur”¹. Shunday ekan, biz doimo ajdodlarimiz orqali oʻtmish, tarix va madaniyatni oʻrganishga harakat qilamiz.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy oʻquv yurtlaridan keyingi taʼlim tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Farmonlari va

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 2022-yil, 20-dekabr.

2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda o‘tkazilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-son “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida chet tillarini o‘rganishni ommalashtirish jarayonini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari ushbu faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq tarzda amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mazkur tadqiqot ishimizda ingliz va qoraqalpoq she‘riyatida “Soul/Ruwx” konseptining lingvomadaniy xususiyatlarini konseptual tahlil usuli asosida o‘rganish nazarda tutilgan. Jorj Lakof va Mark Jonsonlar² konseptual metafora nazariyasi orqali mazkur tadqiqotga bog‘liq “Soul/Ruwx” konseptining tadqiqot maydonida asos bo‘luvchi empirik manba vazifasini bajaradi. Bunda insonning kognitiv ongida paydo bo‘lgan tushunchalar tizimining metaforalashuvida milliy-madaniy o‘ziga xosliklar mujassamlashadi. Shu kungacha “Soul/Ruwx” konsepti jahon tilshunosligida turli aspektlar doirasida o‘rganilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, mashhur tilshunoslar A.Vejbitskaya, V.A. Maslova, V.V. Krasnixlar «душа» leksemasiga turlicha variantli izohlar bergan³. «Душа» konsepti bo‘yicha rus olimlari tomonidan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan va rus, ingliz, kabardin, tatar, adigey, cherkes kabi olamning lisoniy manzarasida frazeologik, paremiologik, pragmatik, leksik va diniy-falsafiy birliklar asosida qiyosiy tillar kesimida ochib berilgan⁴. Bundan tashqari, ayrim tadqiqotlar

² George Lakoff and Mark Johnson. *Metaphors we live by*. Chicago: University of Chicago Press, 1980. - 242 p.

³ Wierzbicka A. *Understanding cultures through their key words: English, Russian, Polish, German, and Japanese*. – Oxford University Press, 1997. – Т. 8. Р. 317.; Маслова В. А. *Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений*. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – С. 107.; Красных В.В. *Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология: Курс лекций*. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2002. – 284 с.

⁴ Перевозникова А.К. *Концепт душа в русской языковой картине мира: диссертация ... кандидата филологических наук: 10.02.01*. – Москва, 2002. – 184 с.; Ваниева О.А. *Фразеологические единицы библейского происхождения с концептами «душа/дух» и «сердце» в качестве опорного слова в русском, английском и осетинском языках: Сопоставительное исследование на материале Нового Завета Библии: автореферат дис. ... кандидата филологических наук: 10.02.20 / Сев.-Осет. гос. ун-т им. К.Л. Хетагурова*. – Владикавказ, 2005. – 22 с.; Дзуганова Л.М. *Языковая концептуализация души: на материале английского, русского и кабардино-черкесского языков: автореферат дис. ... кандидата филологических наук: 10.02.19 / Дзуганова Лилия Мухамедовна; [Место защиты: Кабард.-Балкар. гос. ун-т им. Х.М. Бербекова]*. – Нальчик, 2007. – 23 с.; Цримова, Залина Руслановна. *Концепт «сердце» в языковой картине мира: На материале кабардинского, русского и английского языков: автореферат дис. ... кандидата филологических наук:*

nafaqat “ruwx” konseptiga, qolaversa, “yurak”, “tana”, “aql”, “taqdir”, “bosh” tushunchalari bilan ham yaxlit o‘rganilgan⁵. Bu borada adabiyot diskursida o‘rganilgan “Ruwx” konsepti bilan bog‘liq tadqiqotlarni ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, poetik kontekstda B.Pasternak, M.Cvetayeva, F.Tyutcheva kabi olimlar tomonidan individual poetik olam manzarasidagi “ruwx” konseptini tadqiq qilgan⁶.

O‘zbekistonda hozirgi kunda antropotsentrik yo‘nalishda lingvomadaniy, lingvopragmatik va lingvokognitiv tahlili tilshunos olimlar tomonidan tadqiqot ishlarida keng qo‘llanilmoqda, chunki fanda inson fenomenini o‘rganish eng zarur vazifaga aylanib ulgurdi. Shu jumladan, Sh.S. Safarov, D.U. Ashurova, M.R. Galiyeva, A.A. Abduazizovlar kabi olimlar kognitiv lingvistika va lingvomadaniy tadqiqotlarda alohida muhim yo‘nalishlarni yaratgan⁷. Shuningdek, qoraqalpoq tilshunosligida G.K. Kdirbaeva, G.A. Usenova, N.M. Jalg‘asov, A.N. Sadullayeva, A.A. Xudaybergenov, S.P. Saparov, Sh.M. Kalimbetov kabi olimlar tomonidan konseptosfera va konsept talqini, paremiologik, frazeologik, kognitiv, lingvomadaniy tadqiqot, ularning adabiy diskursda talqin etilishi doirasida bir qator ilmiy ishlar himoya qilingan. Tilshunoslik tadqiqotning keyingi yo‘nalishlariga katta yo‘l ochgan⁸.

10.02.19 / Кабард.-Балкар. гос. ун-т им. Х. М. Бербекова. – Нальчик, 2003. – 21 с.; Данилова Р.Р. Концепт «ЙӨРӨК» («сердце») в татарской языковой картине мира: автореферат дис. ... кандидата филологических наук: 10.02.02 / Данилова Рамиля Рафисовна; [Место защиты: Татар. гос. гуманитар.-пед. ун-т]. – Казань, 2009. – 23 с.; Авдышева Е.Г. Концепт «Душа» как вербально-деривационное единство: культурно-аксиологический аспект: на материале русского и английского языков: автореферат дис. ... кандидата филологических наук: 10.02.19 / Авдышева Елена Георгиевна; [Место защиты: Адыг. гос. ун-т]. – Майкоп, 2013. – 18 с.; Чич Б.А. Субстанциальность и метафоричность концепта «сердце» - «гу» в языковой картине мира: на материале русского и адыгейского языков: автореферат дис. ... кандидата филологических наук: 10.02.19 / Чич Бэлла Аслановна; [Место защиты: Адыг. гос. ун-т]. – Майкоп, 2010. – 22 с.;

⁵ Нуждина О.Ю. Концепты «душа» и «тело» в языковой картине мира: На материале английского и русского языков: автореферат дис. ... кандидата филологических наук: 10.02.19 / Моск. гос. обл. ун-т. – Москва, 2004. – 18 с.; Бурнос И.В. Русские концепты «душа», «дух», «ум» в сопоставлении с английскими «mind», «soul», «spirit»: На материале текстов художественной литературы XIX-XX веков: автореферат дис. ... кандидата филологических наук: 10.02.01 / С.-Петерб. гос. ун-т. – Санкт-Петербург, 2004. – 17 с.; Хамизова З.М. Фразеологические единицы с компонентами «сердце», «голова», «душа» в кабардино-черкесском и английском языках: сопоставительный анализ: автореферат дис. ... кандидата филологических наук: 10.02.02, 10.02.20 / Хамизова Залина Мусаевна; [Место защиты: Ин-т языкознания РАН]. – Москва, 2007. – 35 с.; Кондратьева О.Н. Концепты внутреннего мира человека в русских летописях: На примере концептов душа, сердце, ум: автореферат дис. ... кандидата филологических наук: 10.02.01 / Ур. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург, 2004. – 24 с.;

⁶ Колесникова В.В. Художественный концепт «душа» и его языковая репрезентация: на материале произведений Б. Пастернака: автореферат дис. ... кандидата филологических наук: 10.02.01 / Колесникова Виктория Владимировна; [Место защиты: Кубан. гос. ун-т]. – Краснодар, 2008. – 20 с.; Калашникова А.Л. Образ души в художественном мире Ф.И. Тютчева: автореферат дис. ... кандидата филологических наук: 10.01.01 / Калашникова Анна Леонидовна; [Место защиты: Ур. федер. ун-т имени первого Президента России Б.Н. Ельцина]. – Екатеринбург, 2015. – 24 с.; Ибрагимова С.Р. Поэтика дихотомии «Тело - Душа / Ева – Психея» в творчестве М.И. Цветаевой: автореферат дис. ... кандидата филологических наук: 10.01.01 / Ибрагимова Светлана Рифкатовна; [Место защиты: Казан. (Приволж.) федер. ун-т]. – Казань, 2017. – 21 с.; Колесникова, Виктория Владимировна. Художественный концепт «душа» и его языковая репрезентация: на материале произведений Б. Пастернака: автореферат дис. ... кандидата филологических наук: 10.02.01 / Колесникова Виктория Владимировна; [Место защиты: Кубан. гос. ун-т]. – Краснодар, 2008. – 20 с.;

⁷ Safarov S.Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006, – 90 b.; Ashurova D.A., M.R.Galiyeva. Cultural Linguistics. – Tashkent, 2009. – 125 p.; Абдуазизов А. О составных частях конитивной лингвистики // Хорижий филология. Т.: 2007, №3. – С.5-6.

⁸ Кдырбаева Г.К. Лингвокультурологические и лингвокогнитивные особенности единиц концептосферы «man» и «adam» (на примере английского и каракалпакского языков): Афтореф.дис. д-ра. филол. наук. – Т., 2017. – 45 с.; Усенова Г.А. «Mother/Ана» концепти идентификаторларининг лисоний-маданий хусусиятлари (инглиз ва қорақалпоқ тиллари мисолида): Филол. фан. Фалс. (PhD) ..д-ри дис. автореф. – Нукус, 2020. – 54 с.; Sadullaeva A.N. «Love/Muhabbat» konseptining lingvomadaniy xususiyatlari (ingliz va qoraqalpoq tillari

“Soul/Ruwx” konsepti turli til tizimlarida, xususan, rus, slavyan tillarida alohida o‘rganilgan, ularning lisoniy va poetik voqelanishi taqdiq qilingan. Frazеologik, paremiologik birliklardagi konseptualizatsiyasi yoritilgan. Shu bilan bir qatorda mazkur ilmiy tadqiqot ishi qoraqalpoq va ingliz tillarida, umumiy lisoniy jihatdan she’riyat diskursida o‘rganilayotgan dastlabki kompleks ish bo‘lishi bilan farqlanadi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Nukus davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq “Olamning lisoniy manzarasining kognitiv-pragmatik sifati” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va qoraqalpoq she’riyatida “Soul/Ruwx” konseptining lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

lisoniy olam manzarasi, lisoniy shaxs, konsept, konseptual maydon, konseptual tahlil, konseptual metafora, lingvomadaniy tadqiqot yo‘nalishi va boshqa lingvomadaniyatshunoslikka doir olib borilgan nazariy tadqiqotlarni o‘rganish;

“Soul/Ruwx” konsepti va uning maydon birliklarini aniqlash, qiyoslanayotgan tillar doirasida uning leksik-semantik, frazeologik tuzilmalaridagi va matn tarjimasidagi ma’noviy o‘xshashlik va farqli jihatlarini ochib berish;

ingliz va qoraqalpoq she’riyatida “Soul/Ruwx” konsepti bilan bog‘liq bir qator shoirlar diskursidagi konseptual metaforalarni tahlil qilish, ularning tematik guruhini belgilash va diskursiv xususiyatlarini o‘rganish;

“Soul/Ruwx” konseptining metaforalariga ko‘ra, ikki xalqning milliy olam manzarasini tahlil qilish, poetik diskurs asosida milliy o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish.

Tadqiqot obyekti sifatida ingliz va qoraqalpoq lingvomadaniyatida “Soul/Ruwx” konsepti tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va qoraqalpoq tillaridagi “Soul/Ruwx” konseptining leksik-semantik, frazeologik, matn tarjimasi, shuningdek, poetik kontekstdagi lingvomadaniy xususiyatlarini tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda “Soul/Ruwx” konseptining ingliz va qoraqalpoq she’riyatidagi lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash uchun konseptual tahlil metodi, ikki tillik she’riy misollardagi o‘xshashlik va farqli tomonlarini, leksik-semantik o‘ziga xosliklarini o‘rganish uchun qiyosiy-tipologik, komponent, freym metodi, shuningdek, olingan she’riy misollarni tahlil qilish, til

misolida): Filol. fan. fals. (PhD)..d-ri. diss. avtorefer. – Nukus, 2024. – 54 b.; Худайбергенов А.А. Маданиятлараро мулоқотда инсон характери ифодаловчи фразеологик birlikларнинг ўзига хос хусусиятлари (инглиз ва қорақалпоқ тиллари мисолида): Автореф. дис. ...филол. наук. Нукус, 2022. – 58 б.; Жалғасов Н.М. Прагматические и лингвокультурологические особенности оценки человека в провербиальных образованиях (на материале английского, узбекского и каракалпакского языков)..дис.. на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по филологическим наукам. 2020. – 141 с.; Kalimbetov Sh.A. Sadness/Qayg‘u metaforasi matnda faollashuvning kognitiv-diskursiv xususiyatlari (ingliz va qoraqalpoq tillari misolida). Filol. fan. fals. (PhD)..d-ri. dis. avtorefer. – Nukus, 2024. – 48 b.; Saparov S.P. Komparativ adektiv iboralar shakllanishining konseptual asosi va ularning leksik-semantik xususiyatlari. Filol. fan. fals. (PhD)..d-ri. dis. avtorefer. – Nukus, 2024. – 54 b.

birliklarining turli kontekstlarda kelishini aniqlash uchun diskurs, kontekstual va bayon tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va qoraqalpoq tillarining lisoniy va poetik olam manzarasida “Soul/Ruwx” konseptining lingvomadaniy mazmuni, konseptual tuzilmasi va metaforik modellar tizimi kompleks konseptual tahlil asosida aniqlanib, ilmiy jihatdan ochib berilgan;

“Soul/Ruwx” konseptining konseptual maydoni ishlab chiqilgan va shu asosida leksik-semantik makonda definitsiya usuli orqali ikki til olam manzarasida konseptning leksik-semantik xususiyatlari asoslab berilgan;

“Soul/Ruwx” konseptiga oid frazeologik birliklar asosida komponentlashtirish orqali konseptning ingliz va qoraqalpoq frazeologik portreti yaratilgan va matn tarjimasidagi konsept freymlari dalillangan;

“Soul/Ruwx” konseptining ingliz va qoraqalpoq she’riyatida konseptual metaforalar orqali ifodalanish xususiyatlari o’rganilgan hamda mavzuviy tasniflar asosida konseptning milliy ong va milliy-madaniy xususiyatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va qoraqalpoq tillarida “Soul/Ruwx” konseptining ingliz va qoraqalpoq olam manzarasida lisoniy va poetik verballashuvi asosida olingan ilmiy-amaliy natijalar va xulosalar nominativ maydon birliklarining tadqiqida nazariy manba vazifasini bajarishi belgilangan;

ingliz va qoraqalpoq tillaridagi konseptual-poetik metaforalar asosida konseptual metaforik birikmalarda verballashtirishning tasnifiy usullari yaratilib, ulardan yangi metaforik tadqiqot yo’nalishida foydalanish tavsiya etilgan;

tadqiqot natijalaridan leksikologiya, semantika, leksikografiya, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv lingvistika kabi tilshunoslik sohasiga oid qo’llanmalar, darsliklar va o’quv loyihalari ishlab chiqishda foydalanish ko’zda tutilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida qo’llanilgan yo’nalish va usullarning zamonaviy nazariyalar bilan uyg’unligi va nazariy ishonchli manbalar bilan asoslanganligi, muhokamaga qo’yilgan masalaning dolzarbligini va materiallarning ishonchliligi, masalalarning ko’ndalang qo’yilganligi va ijobiy yechimlar bilan boyitilganligi, olingan natijalar va xulosaning aniqligi, fikr va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ingliz va qoraqalpoq poetik olam manzarasida “Soul/Ruwx” konseptining konseptual metaforik verbalizatsiyasi va konseptualizatsiyasi ilg’or ilmiy ishlarda boshqa tillar bilan bir qatorda o’rganishga yanada ko’p imkoniyat beradi va ma’lum til tarmoqlarini to’ldiruvchi resurs vazifasini bajarishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot natijalaridan tilshunoslikni har tomonlama chuqur o’rganish, sifatini ta’minlashda, ta’lim jarayonida lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv lingvistika, lingvopragmatika, leksikologiya,

tarjimashunoslik, krosslingvistika fanlari bo'yicha ma'ruza va seminarlarni tashkil etishda, darslik, o'quv qo'llanma va ikki tilli lug'atlar yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va qoraqalpoq tillarida "Soul/Ruwx" konseptining lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish asosida:

ingliz va qoraqalpoq tillarining lisoniy va poetik olam manzarasida "Soul/Ruwx" konseptining lingvomadaniy mazmuni, konseptual tuzilmasi va metaforik modellar tizimi kompleks konseptual tahliliga doir ilmiy ish natijalaridan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F-1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini joriy etish" nomli fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2025-yil 14-maydagi 284/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'rganilayotgan tillarda "Soul/Ruwx" konsepti haqidagi madaniy qarashlar yanada takomillashtirilgan;

"Soul/Ruwx" konseptining ingliz va qoraqalpoq she'riyatida konseptual metafora orqali ifodalanish xususiyatlari o'rganilgan va mavzuviy tasniflar asosida konseptning milliy ong va milliy-madaniy xususiyatlariga oid fikrlar Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasining har oyning 12-sanasida o'tkaziladigan seminar-kengashida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 28-martdagi 26-son ma'lumotnomasi). Natijada, "Yosh ijodkorlar" seminar-kengashida Shekspir/Ajiniyoz va Bayron/I.Yusupov she'riyatining bir-biridan farqlanishi, ularning she'r yozish uslubi, poetik motiv, lirik qahramon, qofiya, ritm va ohangi qanday ekanligi, shuningdek, ular qanday milliy-madaniy xususiyatlarga ega ekanligi haqidagi ma'lumotlar yosh shoirlarga tanishtirilgan;

"Soul/Ruwx" konseptining konseptual maydoni va shu asosda leksik-semantik sathda definitsiya usuli orqali ikki til olam manzarasida konseptning leksik-semantik xususiyatlari haqidagi natijalar Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyidagi ikki xalq adabiyoti vakillari eksponatlarining izohlarida foydalanilgan (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyining 2025-yil 14-maydagi 01-02/03-103-son ma'lumotnomasi). Natijada, muzeyning yangi binosi ekspozitsiyasida qo'yiladigan eksponatlarga keltirilgan izohli tarjimalarda ilmiy ish materiallaridan foydalanilgan;

"Soul/Ruwx" konseptiga oid frazeologik birliklar asosida komponentlashtirish orqali konseptning ingliz va qoraqalpoq frazeologik portreti va matn tarjimasida konsept freymlariga oid ma'lumotlar bo'yicha xulosalar O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining hududiy Qoraqalpog'iston teleradiokanalining "Ja'halıqlar" dasturi va "Dáwir napesi" eshittirishlarida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Teleradiokanalining 2025-yil 22-avgustdagi 05-22/486-son ma'lumotnomasi). Natijada, tadqiqotda aniqlangan "Soul/Ruwx" konseptiga oid frazeologik birliklar va matn tarjimasidagi freym xususiyatlari teleradiokanal tajribasida badiiy mazmuni boyitishda foydalanishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza sifatida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 5 ta maqola respublika, 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 145 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti keltirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiqi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning I bobi **“Antropotsentrik paradigma: lingvomadaniy tadqiqotning nazariy asoslari”** deb nomlangan bo'lib, uchta fasldan tashkil topgan. Uning **“Konseptlar – lingvomadaniyatshunoslik markazida”** nomli birinchi faslida inson fenomenini organishda til va madaniyat masalalari ahamiyati o'rganilib, konseptlar xalqlarning anglash va idrok qilish qobiliyatini ifodalovchi tayanch nuqta ekanligi, lisoniy shaxs tushunchasi va uning tilda tutgan o'rni haqidagi tadqiqotlar tahlil qilingan.

Tilshunoslikda antropotsentrik tadqiqot yo'nalishi, metodi va bosqichlari rivojlanish fazasida individual shaxs yoki inson tadqiqotning diqqat periferiyasiga jamlanmoqda va chuqur tahlil ishlari ko'zga tashlanmoqda. Insonni antropologik kod sifatida baholagan S.M.Tolstayaning tadqiqotlarida **“Antropotsentrizm tushunchasini inson va uning atrofidagi barcha munosabatlarning umumiy mavzusi bilan insonni mikrokosmos, tashqi dunyoni esa unga izomorf makrokosmos sifatida tushunish bilan bog'liq”**⁹ deb ta'kidlangan.

Lingvomadaniyatshunoslik – ma'lum bir xalqning asrlar davomida shakllangan, ijtimoiy va global o'zgarishlar bilan boyib borgan, o'zida ko'p tasavvur va voqealarni aks ettiradigan madaniy dunyosini til nuqtayi nazaridan o'rganadigan soha, shuningdek, bu bir tomondan antropologik xarakterga ega.

Zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyat tushunchalari yetakchi o'ringa chiqqan va shu bois bir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Til va madaniyat tushunchalari lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tarkibiy qismlari bo'lib, milliy mentalitet sandig'ini bezab turadigan milliy til tarixiy **“manzara”**ni bo'yiga jamlab, inson ongida

⁹ Толстая С.М. «Очеловечивание сущего»: заметки об антропоцентризме и антропоморфизме в языке и культуре.//Антропоцентризм в языке и культуре. -Москва: Индрик, 2017. – С.7.

olam manzarasini yorqin spektrlarda aks ettiradi. Biz ularni ko‘ra olish uchun, albatta, konseptlarga tayanamiz.

Sh.S.Safarovga “konsept” atamasini quyidagicha izohlaydi. Konseptlar inson ongida yuzaga keladigan turli kategoriyalarning asosini tashkil etadi. Ular uchun tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi. Konseptning asosini tashkil etuvchi predmet obrazi yetarlicha aniq va ikkilamchi o‘rin egallagan qismlari mavhumlikka ega bo‘lishi bilan birga, ular yagona asos (yadroviy asos) atrofida o‘zaro munosabatga birlashadi¹⁰. Konseptlar esa, lisoniy shaxs atamasi bilan mental jihatdan bog‘lanadi.

Lisoniy shaxs (языковая личность) – lingvomadaniy yo‘nalishda asosiy komponentlardan biri, chunki til va madaniyat aloqasini o‘rganishda ular o‘rtasidagi yashirin eshiklarni topib beruvchi “oyna”. Til egasi badiiy matnda odamlar bilan ijtimoiy munosabatga (kommunikatsiyaga) kirishib, turli hayotiy voqealarni boshdan kechiradi, bunda emotsiyalar, ichki va tashqi kechinmalar, psixologik holat til etaloni orqali aks etadi, til tashuvchining “prototipi”ni chizib beradi. Lisoniy shaxs lirikadagi mavjud xususiyat, emotsiya va tuyg‘ular egasi sifatida alohida fonga olib chiqiladi. Lisoniy shaxs a) *homo loquens*lar sifatida paydo bo‘ladi, b) sintezga ko‘proq e’tibor beradi, c) lisoniy shaxs kommunikativ shaxs bo‘lib ham xizmat qiladi, d) og‘zaki-semantik, e) umumiy va xususiy bilish makonini tashkil etadi, f) u pragmatik tushuncha ham hisoblanadi.

Bobning “**Olam lisoniy manzarasining konseptual maydonda tadqiq qilinishi va aks ettirilishi**” deb nomlangan ikkinchi faslida olamning milliy lisoniy manzarasini konseptual maydonda lingvomadaniy jihatdan o‘rganish, konseptuallashtirishda konseptual tahlilning ahamiyati va maydon tushunchasi konseptual tahlil bilan bog‘liqligi to‘g‘risida turlicha qarashlar mavjudligi haqida fikr yuritilgan.

Aniq bir lokatsiyaga ega etnos o‘zining ruhiy-madaniy va ijtimoiy-madaniy hodisalari bilan birga o‘zgarib va rivojlanib boradi. Til va milliy ongda alohida qatlamlarni hosil qiladi. Bu esa uning lingvomadaniy differensialligini namoyon qilib beradigan olam lisoniy manzarasini hosil qiladi. Shu asosda, ongli immunitet qanchalik boy bo‘lsa, dunyoqarashi shunchalik keng bo‘ladi, olam manzarasi ham rang-barang bo‘ladi.

N.F. Alefirenko olam manzarasi jamoaviy va individual xususiyatga ega ekanligini quyidagicha izohlaydi.

“Olam manzarasi” tushunchasi “olam modeli” tushunchasi bilan yonma-yon qo‘llaniladi, u “koordinatalar to‘ri” deb tushuniladi, uning yordamida odamlar voqelikni qabul qilib, o‘z onglarida olam aksini gavdalantiradi¹¹.

Olam lisoniy manzarasi – insonning olam haqidagi bilimi borliq jihatidan bir xil tavsifga ega bo‘lmagan tillarda turlicha olam manzaralarida namoyon bo‘ladi. Xususan, individual va jamoaviy xususiyatlarga ega bo‘ladi, ya’ni milliy va kognitiv til jarayonida konseptual tarzda xarakterlanadi. Olam juda keng tushuncha bo‘lib, bu tushunchaning doirasi keng bo‘lganligi tufayli uni turli makonlardan, tafakkur tarmoqlaridan va fikrlash nuqtayi nazarlaridan olib, konseptual maydondagi bir individga tegishli dunyoqarashni boyitish mumkin. Masalan, olamning lisoniy

¹⁰ Сафаров С.Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 17 б.

¹¹ Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология ценностно-смысловое пространство языка: учебное пособие. – Москва: «Флинта», «Наука», 2010. – С. 100.

manzarasi, konseptual, milliy, individual, madaniy, frazeologik, paremiologik olam manzarasi kabi.

Individual, milliy va universal olam manzarasi konseptual maydon kengligida shakllangan etnosga xos mental va kognitiv tushuncha va konseptlar yordamida aks ettiriladi va bu esa kognitologiya va lingvomadaniyatshunoslik uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, “Soul/Ruwx” konseptining milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganishda konseptual maydon tayanch vazifasini o‘taydi. Har qanday mavjud etnos ongida olam tushunchalarining ifodasi va ma’nosi konseptualizatsiyadan kelib chiqadi. Bu konseptualizatsiya uning o‘ziga xos “etnos fenomeni”ni o‘z ichiga oladi. Albatta, konseptual tahlil bevosita kognitiv lingvistika bilan chambarchas bog‘liq. Konseptual maydon bu muallifning (xalqning, sotsiumning) tili va tabiatini (dunyoqarashini) ko‘rsatib beradi. Hech qachon konseptual maydondagi konseptual tahlil konseptlarsiz amalga oshirilmaydi.

D.U. Ashurova va M.R. Galiyevaning ta’kidlashicha, “Shaxsiy muallif olam tasvirining talqini kontent tahlil, stilistik tahlil va konseptual tahlil kabi uch guruhni o‘z ichiga qamrab olishini ko‘rsatib beradi”. Shuningdek, ular uchalasining farqini ajratib, konseptual tahlilni quyidagi muallifning xayoliy olamini konseptuallashtirish usuli bilan bog‘laydi. Konseptual tahlil kontent va stilistik tahlillarga asoslanib, muallifning nuqtayi nazari va uning xayoliy olamni ongida aks ettirishining o‘ziga xos usulini ko‘rsatadi¹². Har qanday konseptual tahlil konseptual maydonga tayanadi.

Konseptual maydon – konseptning kommunikativ jihatdan tegishli qismining murakkab aktuallashtirgan mazmuni va tuzilishini muayyan tilda so‘zlashuvchilar ongini aks ettirishga imkon beruvchi, bir necha tarkibiy qismlarni birlashtirgan murakkab mental rivojlanish shakli. Shu nuqtayi nazardan quyidagi xususiyatlarga ega.

1. Maydon tizimli munosabatlar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan elementlarning inventarizatsiyasini anglatadi.

2. Maydonni tashkil etuvchi elementlar semantik umumiylikka ega bo‘lib, tilda yagona vazifani bajaradi.

3. Maydon bir jinsli va geterogen elementlarni birlashtiradi.

4. Maydon uning tarkibiy qismlaridan hosil bo‘ladi.

5. Maydon vertikal va gorizontal xususiyatga ega.

6. Maydon yadro va periferik qismlardan iborat.

7. Teng maydonlar bir-biri bilan ustma-ust tushib, barqaror o‘tish zonasini hosil qiladi. Bu til tizimining maydon tashkil topishidagi qonuniyati¹³.

I bobning uchinchi fasli **“Soul/Ruwx” konseptining o‘rganilish tarixi va metodlari**” deb nomlanadi. Mazkur faslda “Soul/Ruwx” tushunchasining falsafa va tilshunoslik sohalarida alohida tadqiq qilinishi hamda tadqiqot usullari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Zamonaviy insoniyat sivilizatsiyasi turli bosqichlarni, jarayonlarni hamda taraqqiyotlarni boshidan kechirishi bilan birga, til birliklari, til hodisalari va til tizimlari texnik, ijtimoiy va ilmiy yutuqlar ta’sirida o‘zgarishga uchramoqda. Bu esa inson ongidagi o‘zgarishlarni, kognitiv bilimlar doirasini tadqiq etishga katta turtki beradi.

¹² Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Cultural linguistics. – Tashkent, 2019. – P. 50.

¹³ Зубарева Е.О., Шустова С.В., Исаева Е.В. Концептуальное поле в современной лингвистической парадигме//Научный журнал № 3, 2019. – С.19.

“Soul/Ruwx” konsepti bevosita din, adabiyot va falsafa yo‘nalishlari bilan bog‘liq. Shuning uchun hozirgi kunda “Soul/Ruwx” birligi lingvomadaniyatshunoslikda ramziy, diniy-falsafiy va badiiy jihatdan turli shakllarda konseptualizatsiyaga uchragan.

“Ruwx” – bu borliq, izoh, yaralish, abadiyat kabi semalarga bog‘liq falsafiy atama hisoblanadi. Platon, Suqrot o‘z tadqiqotlarida quyidagicha izohlaydi. Ruh o‘lmaydi. “Ruwx” konseptini uch qismdan iborat ekanligini keltirib o‘tadi. Aql (logos), ruh (timos) va ishtaha, xohish (epitimia) iborat deb izohlaydi. Qolgan ikkitasini aql-idrok boshqarishi kerak. Ruh tanada qamalib, o‘limdan keyin ozodlik izlaydi. Shakllar abadiy va ruh ular bilan bog‘liqligini ko‘rsatib beradi. Tadqiqotning falsafada o‘rganilish tarixi bo‘yicha, “ruwx” konsepti quyidagicha uchta metaforik guruhga ajratildi.

1. Ruh substantsiya/shakl sifatida – Plato, Aristotel, Plotinus, Tomas Akvinskiy, Rene Dekart.

2. Ruh bunyod etilgan “men”/yig‘ilgan tajriba sifatida – Devid Yum, Immanuel Kant, Jan-Pol Sartr, Simon de Bovuar.

3. Ruh ijtimoiy/axloqiy struktura sifatida – Fridrix Nicshe, Simon de Bovuar.

To‘plagan misollar doirasida “Ruwx” konseptining o‘rganilishiga doir bir qancha hajmdagi doktorlik dissertatsiya ishlari bilan tanishganmiz. To‘plangan misollarga tayangan holda “Ruwx” konseptini to‘rt guruhga bo‘lish lozim deb topildi.

1. “Ruwx” konseptining tilda o‘rganilishi va turli tillardagi konseptualizatsiyasi;

2. “Ruwx” leksemasining frazeologik birlik sifatida o‘rganilishi;

3. “Ruwx” konseptining boshqa o‘xshash konseptlar bilan gavdalanishining tahlili;

4. “Ruwx” konseptining adabiy diskursdagi talqini.

To‘plangan materiallardan kelib chiqqan holda quyidagicha xulosaga kelindi va tadqiqotda e‘tiborga olinishi kerak bo‘lgan sohalarni aniqlandi.

1. “Ruwx” konsepti asosida adabiy diskursda juda ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Kognitiv, lingvomadaniy nuqtayi nazardan o‘rganilgan va uning verbalizatorlari aniqlangan. Lekin she‘riy kontekstda o‘xshash konseptlar va faqat bir xalqning she‘riyati bilan cheklangan.

2. “Ruwx” konsepti ko‘proq lingvomadaniy, kognitiv, bayon qilish, talqin qilish tahlil metodlari orqali tadqiq qilingan. Konseptual tahlil she‘riyat diskursida majmua amalga oshirilmagan.

3. Ayrim tadqiqotlarda “ruwx” konseptini ya‘ni “yurak”, “aql”, “tana”, “tafakkur” kabi konseptlar bilan sinonim sifatida o‘rgangan. “Ruwx” tushunchasi keng qamrovli, ko‘p konseptual maydon birliklariga ega konsept. Shuning uchun alohida o‘rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Soul/Ruwx” konseptining konseptual verbalizatsiyasi** deb, uning birinchi fasli **“Soul/Ruwx” konseptining ingliz va qoraqalpoq tillarida leksik-semantik gavdalanishi** deb nomlanadi. Leksik-semantik sathda “Soul/Ruwx” konseptining ingliz va qoraqalpoq tillarida ifodalanishi definitiv, etimologik va ta‘rifiy tahlillar orqali tahlil qilinib, umumiy va milliy xususiyatlari lingvomadaniy jihatdan o‘rganildi.

Har qanday etnosning dunyoqarashi va tafakkurini uning leksik fondi orqali ham o‘rganish va tahlil qilish mumkin. Chunki o‘zganing emotsional-ekspressiv tafakkuri,

umumiy tildagi kommunikatsiyasi sotsium muhitidagi ta'sirlari bilan aloqaga kirishadi va o'z navbatida, bu aloqa etnoslik milliy dunyoqarashni shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotda “Soul/Ruwx” konseptining verbalizatorlarini aniqlash va konseptual xaritasini ishlab chiqish maqsadida antropotsentrik rakursdan kelib chiqqan holda uning leksik-semantik xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Buni amalga oshirishda bir qancha ingliz va qoraqalpoq tillaridagi lug'atlarga tayangan holda “Soul/Ruwx” konseptiga berilgan izohlar ko'rib chiqildi. “Soul” tushunchasining etimologiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ingliz tilining etimologik lug'atida quyidagicha izohlanadi. “Soul” so'zi qadimgi ingliz tilida *sāwol*, *sāwel* kabi. Miloddan avvalgi IV asrda qadimgi Yuqori nemis (Old High German) tilida *sēula*, *sēla* shaklida keltirilgan. Chamberning etimologik lug'atida esa “soul” leksemasiga uyg'unlikka ega yigirma oltitasininig izohini ko'rsatadi.

Bu yerda *saute*, *smvol*, *seele*, *saivala*, *Souled*, *sold* shakllarida etimologik evolyutsiya bo'lganini va birlamchi ta'rif *ko'ngil* leksemasiga mos ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, Qisqacha Oksford lug'atida¹⁴ “soul” leksemasi “sol” leksemasi bilan ko'rsatilgan “sol”, “sole” va “soul” leksemalari bir-biriga bog'liq tushunchalar. **Sol** leksemasining izohida Rim mifologiyasidagi Rim xudosi, Quyosh personifikatsiyasi va Greklarda Titaning o'g'li Heliosning dushmani¹⁵ sifatida izohlanadi. Demak, izohlardan kelib chiqqan holda “soul” leksemasining leksik birlik sifatida shakllanishi eski nemis, grek va got tillariga borib taqaladi. Shuningdek, mifologik hodisaga ega. Rim mifologik kontekstda xudo sifatida ifodalanganligini¹⁶ quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Shakl	Til davri/tarkibi
«Soul»	Zamonaviy ingliz tili
<i>sāwol</i> , <i>sāwel</i> (<i>ruwxly barliq, ómir</i>)	Eski ingliz tili
<i>sēle</i> , <i>sēl</i> ("salvation", or "solemn oath") (ashliq yaki qatań ant)	Eski friz tili
<i>saiwala</i>	Got tili
<i>sēula</i> , <i>sēla</i>	Yo'qori eski nemis tili
<i>sēola</i>	Eski sakson tili
<i>sāla</i>	Eski norveg tili
gollandsha <i>ziel</i> , nemishe <i>Seele</i>	Zamonaviy golland va nemis tilleri


Ingliz tilida “Soul/Ruwx” konseptining definitiv tahlili uchun “Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English”, “Cambridge Advanced Learner’s Dictionary” hamda “Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi (jeti tomlıq)”, “Русско-каракалпакский словарь (около 25 тыс. слов и словосочет.)” kabi lug'atlarda berilgan izohlardan foydalanildi. Izohlardan kelib chiqib quyidagicha “Soul/Ruwx” konseptining nominativ birliklar maydoni shakllantirildi (1-rasm).

1-rasm. Ingliz va qoraqalpoq tillarida “Soul/Ruwx” konseptining konseptual maydoni

¹⁴ The Concise Oxford Dictionary of Current English adapted by H.W.Fowler, F.G.Fowler. Third Impression. Oxford at the Clarendon Press 1912. – 486 p.

¹⁵ https://sapling.ai/mixup/sol_ole_soul.

¹⁶ <https://en.wikipedia.org/wiki/Soul>.



Ikki tildagi “Soul/Ruwx” konsepti uchun berilgan izohlardan quyidagi o‘xshashlik va farqlar aniqlangan.

– inglizcha lug‘atlarda har xil aspektlardan kelib chiqib batafsil izoh berilgan, ammo qoraqalpoqcha izohlar ancha tor doirada ekanligi va asosiy mazmun qolib ketgan;

– inglizcha bir izoh “soul-no one, no living soul” ma’nosida “ruwx” leksemasiga umuman yaqin kelmaydi, bu qoraqalpoq tilida “jan” leksemasi ma’nosiga to‘g‘ri keladi;

– “soulmate” birikmasi qoraqalpoqcha “jan dos, ruwxiy dos” birikmalari bilan sinonim hisoblanadi;

– ingliz lingvomadaniyatida “soul” qora tanli insonlar hayoti bilan bog‘liq ekanligi aniqlangan (ayrim ma’noda);

– aksariyat inglizcha izohlar diniy aspektdan boshlangan, qoraqalpoq tilida esa falsaviy tomondan yondashilgan.

Bobning **“Soul/Ruwx konseptining frazeologik birliklardagi konseptualizatsiyasi”** nomli ikkinchi faslida til birliklari inson dunyoqarashini o‘rganishda va uning individual lisoniy olam manzarasini lingvomadaniy jihatdan tahlil qilishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan frazeologik birliklar tahlil qilingan. Shu jumladan, “Soul/Ruwx” konseptiga doir frazeologik birliklarni o‘rganish bir xalqning hayotida olamning frazeologik portretini yaratish uchun yordam beradi.

Frazeologik birliklar, ya’ni madaniyat tashuvchi vositalarni o‘rganish bo‘yicha rus olimi V.N.Teliya shunday izohlaydi. “Madaniyat tili” turli semiotik tizimlarda gavdalanadi. Tabiiy tilda uning go‘zalligi va munosabati madaniy “narsalar” va tushunchalarning nomlari mazmunida jamlangan bo‘lib, xalq og‘zaki ijodida maqol-matallar, turli lisoniy birliklar, o‘lchovlar, belgilarda, shuningdek, pretsedent matnlaridagi iboralarda o‘z aksini topgan¹⁷. Demak, “ruwx” konsepti insonlarning hayotiy kuzatishlari bilan bog‘liq qoliplarni, mezonlarni, belgilarni ochib beradi.

¹⁷ Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – С. 238.

Frazeologik birliklar komponentlarni o‘z ichiga qamrab oladi va bir xil leksik ma’noga tenglashadi. B.Yusupova o‘z tadqiqotida shunday izohlaydi... “ikki yoki bir necha so‘zlarning qatoridan iborat barqaror so‘z tizmasidan tashkil topgan bo‘lib, tarkibidagi komponentlarning ma’nolaridan boshqa ma’no bildiradigan, barqaror tarkibi va tuzilishi bilan ajralib turadigan birliklar tilda frazeologizmlar deb yuritiladi”¹⁸. Masalan, 1. When the soul **break free** from earthly chains, it rises up to meet the infinite plains (Byron). Kemeler qawsagan qayirda tozıp, Kórsen **júrek sizlar**, dártlerin qozıp (I.Yu.).

Ingliz tilidagi “Soul” hamda qoraqalpoq tilidagi “Ruwx” konseptini aks ettiruvchi frazeologik birliklar (FB) aniqlandi. Turg‘un so‘z birikmalarini qoraqalpoq tilida aniqlashda “Qaraqalpaq tiliniń qısqasha frazeologiyalıq sózligi”¹⁹ va “Qaraqalpaq tilindeki frazeologizmler”²⁰ lug‘atlaridan foydalanildi. Qoraqalpoq tilida aynan “Ruwx” leksemasiga bog‘liq 11 ta, eng yaqin birlik “jan” leksemasiga 36 ta, umumiy 47 ta FB larni aniqladik va ularning ingliz tilida semantik yaqinlikka ega idiomatik, so‘z birikmasi (collocation) va frazeologik variantlarini tahlil qildik (2.2-jadvalga qarang).

2.2-jadval

#	Qoraqalpoq tilidagi FB	Ingliz tilidagi FB	Izoh
R			
1	Ruwxı sóndı	Lose heart	Odamning ichki kuchining, umidi, g‘ayratining yo‘qolishi, ko‘ngli bo‘lmasligi
2	Ruwxı bálent/biyik	High spirits	Odamning ko‘ngli ko‘tarinki bo‘lishi, g‘ayrat, shijoatning mo‘l bo‘lishi
3	Ruwxın kóteriw	Lift someone’s spirits	Birovning ko‘nglini ko‘tarish, g‘ayrat berish, ilhom berish
4	Ruwxı kóteriliw	Be over the moon	Odamning ko‘ngli ko‘tarilishi, kuch-quvvatga to‘lishi
5	Ruwxın sındırıw	Break someone’s spirit/dampen one’s spirit	Birovning shashtini qaytarish, umidsizlantirish

Jorj Lakof va Mark Jonsonlar “Konseptual metaforalar” doirasida ontologiyalar, metaforalar haqida so‘z yuritadi. Inson miyasidagi mavhum tushunchalarni tabiatdagi jonli hodisalar va obyektlar bilan bog‘liq holda, mavhumlikdan konkretlikka o‘tishini izohlaydi va shu asosda ularni komponentlari bilan birga tabiat hodisalariga o‘tishini tahlilga tortdik.

¹⁸ Yusupova B. Qaraqalpaq tiliniń frazeologiyası. Oqıw qollanba/B.Yusupova. – Toshkent. “Tafakkur qanoti”, 2014. 10-b.

¹⁹ Эшбаев Ж. Қарақалпақ тилинің қысқаша фразеологиялық сөзлігі. – Нөкіс: Қарақалпақстан баспасы, 1985. 15-б.

²⁰ Пахратдинов Қ., Бекниязов Қ. Қарақалпақ тилиндегі фразеологизмлер. – Нөкіс: «Билим», 2012. 108-б.

№	Qoraqalpoq/Ingliz	Komponentli tarkib	Metaforik tarkib	Ontologik tarkib
1	Ruwxı sóndı/ Lose heart	Atlıq (at.) + feyil (f.) = feyil/adjective + noun = noun phrase (ph.)	Ruwx sónedi	juldız/tabılma
2	Ruwxı bálent/biyik/ High spirits	Atlıq + kelbetlik (k.) = kelbetlik/adjective + noun = adjective ph.	Ruwx kóteriledi	bálentlik/ biyiklik
3	Ruwxın kóteriw/ Lift someone's spirits	Atlıq + feyil = feyil/verb+pronoun + noun = verb ph.	Ruwx kóteriledi	júk/lift
4	Ruwxı kóteriliw/ Be over the moon	Atlıq + feyil = feyil/verb + prep. + noun = verb ph.	Ruwx kóteriledi (passiv)	qanat/ay hám aspan
5	Ruwxın sındırıw/ Break someone's spirit	Atlıq + feyil = feyil/verb + pronoun + noun + verb ph.	Ruwx sınadı	shiyshe/shiyshe

Ikkinchi bobning uchinchi fasli **“Soul/Ruwx konsepti verbalizatorlarining matn tarjimasidagi semantik maydoni”** deb nomlanadi. Mazkur faslda Bayron asarlarining qoraqalpoqcha tarjimalari uchun konseptual maydon birliklari asosida freym modellar tuzilib, tarjimadagi “Soul/Ruwx” konsepti lingvomadaniy jihatdan o‘rganildi.

Badiiy asarlar tarjimasini nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir. Badiiy asarlarning rang-barangligi, tarjima bilan chambarchas bog‘liqligi va bu rang-baranglik adabiyotimizni boyitish uchun xizmat qiladi.

Bayronning ikki she‘riy namunasining (*Lines written in an album* (Albomga), *My soul is dark* (Ko‘nglim mening qorong‘u)) to‘rt tildagi tarjimasini asosida freym tahlil orqali “Ruwx” konseptining semantik maydoni o‘rganildi. Dastlab, freym tahlilni nima ekanligini ko‘rib chiqsak. Freym yoki freymlashuv hodisasi insonning shaxsiy hayotiy tajribasi bilan bog‘liq. Ijtimoiy olamga tutashgan konseptual maydondagi tushunchalar asosida mental tasvirni chizib beradi va tushunchani oshirishga yordam beradi. Ular atribut-qiymatli to‘plamlar, struktur invariantlar va konstreyntlar kabi komponentlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Anglash geshtaltlari orqali namoyon bo‘ladi va ifodalarni freymlarga (ramkalarga) bo‘lish orqali konseptual maydon birligi uchun kognitiv strukturani hosil qiladi.

Xulosalardan kelib chiqqan holda, “Albomga” nomli she‘rning tarjimasidagi Bayronning she‘riy olam manzarasida muhabbat mavzusini aks ettirgan verbalizatorlarning berilishini quyidagi jadval asosida ko‘rib chiqishimiz mumkin (2.5-jadval).

№	Ingliz	Rus	Qozoq	O‘zbek	Qoraqalpoq
1	stone	одинокая гробница	жалғыз бейіт	якка қабр	jalğiz mazar
2	passer-by	путник	жолаушы	йўловчи	jolawshı
3	page	страница	жырым	бир парча қоғоз	qosıgım
4	year	лет	жылдар	йиллар	-
5		поэт	ақын	шоир	-
6	heart	сердце	жүрек	қалб	júrek
7	eye	взор	көз	нигоҳ	názer

Tanlangan ushbu tarjima asosida quyidagi freymlar shakllantirildi:

1. “Ruwx” konseptining strukturaviy elementlari
2. “Ruwx” konseptining kontekst freymi
3. “Ruwx” konseptining metaforik freymi
4. “Ruwx” konseptining emotsionallik va ruhiy bogliqlik freymi
5. “Ruwx” konseptining falsaviy freymi
6. “Ruwx” konseptining lisoniy freymi

